

“QUTADG‘U BILIG”- XALQ OĖZAKI IJODI TAFAKKURINING NAMUNASI SIFATIDA

Sobirov G‘ulomjon

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Turkshunoslik oliy maktabi tayanch doktoranti
Tel: +998 911444414*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola “Qutadg‘u bilig” asari va unda berilgan maqollarning turk va o‘zbek tillaridagi transformasi o‘rganilgan. Yusuf Xos Hojibning XI asrda yaratilgan “Qutadg‘u bilig” asari turkiy xalqlar ijtimoiy-falsafiy tafakkurining yuksak cho‘qqisi bo‘lib, u yozma adabiyot mahsuli bo‘lishiga qaramay, xalq og‘zaki ijodiga xos dunyoqarash, obrazlar va badiiy usullarni chuqur mujassam etadi. Shu jihatdan asar xalq og‘zaki ijodi tafakkurining yorqin namunasi sifatida baholanadi. “Qutadg‘u bilig”ning asosini pand-nasihat, ibrat, hayotiy tajriba tashkil etadi. Asardagi maqollar ko‘pincha axloqiy me‘yorlar va insoniy qadriyatlarini ta’kidlaydi. Masalan, adolat, sabr-toqat, rahm-shafqat kabi tushunchalar keng o‘rin egallagan. Ular hayot, ma’naviyat, bilim va insonning o‘z-o‘zini anglashiga oid chuqur fikrlarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Til, folklor, doston, maqol, ona, transformatsiya, qavm-qarindosh, do‘stlik, obraz, uy, avlod, ajdod, xarakter.*

Аннотация: *В данной научной статье исследуется трансформация произведения «Кутадгу Билиг» и содержащихся в нём пословиц на турецкий и узбекский языки. Произведение Юсуфа Хос Хаджиба «Кутадгу Билиг», созданное в XI веке, является вершиной социально-философского мышления тюркских народов. Несмотря на то, что это произведение является продуктом письменной литературы, оно глубоко воплощает мировоззрение, образы и художественные методы, присущие народному устному творчеству. В этом отношении произведение считается ярким примером мышления народного устного творчества. Основой «Кутадгу Билиг» являются наставления, примеры и жизненный опыт. Пословицы в произведении часто подчеркивают моральные нормы и человеческие ценности. Например, широко используются такие понятия, как справедливость, терпение и сострадание. Они содержат глубокие размышления о жизни, духовности, знании и самопонимании человека.*

Ключевые слова: *Язык, фольклор, эпос, пословица, мать, трансформация, родство, дружба, образ, дом, поколение, предок, характер.*

Abstract: *This scientific article studies the transformation of the work “Kutadgu Bilig” and the proverbs given in it into the Turkish and Uzbek languages. Yusuf Khos*

Hajib's work "Kutadgu Bilig", created in the 11th century, is the pinnacle of the socio-philosophical thinking of the Turkic peoples. Despite being a product of written literature, it deeply embodies the worldview, images, and artistic methods inherent in folk oral creativity. In this regard, the work is considered a vivid example of the thinking of folk oral creativity. The basis of "Kutadgu Bilig" is advice, example, and life experience. The proverbs in the work often emphasize moral standards and human values. For example, concepts such as justice, patience, and compassion are widely used. They contain deep thoughts about life, spirituality, knowledge, and human self-understanding.

Keywords: *Language, folklore, epic, proverb, mother, transformation, kinship, friendship, image, home, generation, ancestor, character.*

Kirish: Turkiy xalqlar adabiyoti va ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida Yusuf Xos Hojib tomonidan XI asrda yaratilgan "Qutadg'u bilig" asari alohida ilmiy va madaniy ahamiyatga ega. Mazkur asar ilk yirik yozma adabiy yodgorliklardan biri bo'lishi bilan birga, xalq og'zaki ijodida asrlar davomida shakllangan tafakkur tizimini, axloqiy-me'yoriy qarashlarni va ijtimoiy ideallarni o'zida mujassam etadi. Shu bois "Qutadg'u bilig"ni faqat yozma adabiyot namunasi sifatida emas, balki xalq og'zaki ijodi tafakkurining badiiy-falsafiy ifodasi sifatida tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi jamiyatning tarixiy tajribasi, axloqiy qarashlari va estetik didini aks ettiruvchi murakkab tafakkur tizimidir. U o'zining og'zaki shaklda yaratilishi va tarqalishi bilan yozma adabiyotdan farqlansa-da, mazmun-mohiyat jihatidan yozma manbalarning shakllanishida muhim manba vazifasini bajaradi. "Qutadg'u bilig" ana shu jarayonning yorqin namunasi.

Asarda ilgari surilgan adolatli jamiyat va dono hukmdor g'oyasi xalq dostonlari va ertaklarida uchraydigan ideal podsho konsepsiyasi bilan mushtarakdir. Xalq og'zaki ijodida hukmdor xalq manfaatini ko'zlagan, adolatni ustuvor qo'ygan shaxs sifatida tasvirlanadi. Yusuf Xos Hojib ushbu xalqona qarashlarni umumlashtirib, ularni nazariy-falsafiy tizim darajasiga ko'taradi.

Maqollarning aniq ko'lami belgilangan. Tadqiqot jarayonida xalq orasida qo'llanib kelayotgan ayrim maqollarning qadimiy va ta'bir joiz bo'lsa, asl variantlari tiklandi. Yusuf Xos Hojibning tajribasi misolida yozma adabiyotda folklordan, ayniqsa, xalq maqollaridan foydalanishning yo'l va usullari, bu yo'l va usullarning nihoyatda xilma-xil shakl va ko'rinishlarga egaligi ko'rsatib berildi.

Tadqiqot natijalaridan nihoyatda keng va xilma-xil sohalarda foydalanish mumkin. Xususan, adabiyot tarixi, folklorshunoslikka oid tadqiqotlarda, shu sohalarga oid darslik va qo'llanmalar yaratishda, ta'limning turli bosqichlari uchun dastur, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda asqotishiga shubha yo'q. Shuningdek,

adabiyot tarixi, folklorshunoslik, adabiyot va folklor aloqalariga doir maxsus kurs, maxsus seminarlar o'qishda tadqiqot materiallaridan foydalanish mumkin bo'ladi.

Madsad va vazifa: Mazkur maqolada "Qutadg'u bilig" asarining xalq og'zaki ijodi bilan g'oyaviy-genetik aloqasi, undagi xalqona tafakkur unsurlari va badiiy ifoda vositalari magistrlik darajasidagi ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Usullar: Maqola mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza: Xalq og'zaki ijodi jamiyatning tarixiy tajribasi, axloqiy qarashlari va estetik didini aks ettiruvchi murakkab tafakkur tizimidir. U o'zining og'zaki shaklda yaratilishi va tarqalishi bilan yozma adabiyotdan farqlansa-da, mazmun-mohiyat jihatidan yozma manbalarning shakllanishida muhim manba vazifasini bajaradi. "Qutadg'u bilig" ana shu jarayonning yorqin namunasidir.

Asarda ilgari surilgan adolatli jamiyat va dono hukmdor g'oyasi xalq dostonlari va ertaklarida uchraydigan ideal podsho konsepsiyasi bilan mushtarakdir. Xalq og'zaki ijodida hukmdor xalq manfaatini ko'zlagan, adolatni ustuvor qo'ygan shaxs sifatida tasvirlanadi. Yusuf Xos Hojib ushbu xalqona qarashlarni umumlashtirib, ularni nazariy-falsafiy tizim darajasiga ko'taradi.

Ma'lumki, "Qutadg'u bilig" qo'lyozmalari bizga ikki xil yozuvda yetib kelgan. Jumladan, Namangan va Qohira nusxalari arab, Hirot nusxasi uyg'ur harflari bilan yozilgan. "Qutadg'u bilig"ning mazmuniy asosini pand-nasihat tashkil etadi. Pand-nasihat janri xalq og'zaki ijodida eng qadimiy va barqaror janrlardan biri bo'lib, unda hayotiy tajriba umumlashtirilgan holda bayon etiladi. Asarda keltirilgan ko'plab hikmatli fikrlar mazmun va shakl jihatidan xalq maqollariga yaqin bo'lib, ularning umumlashma xarakterini eslatadi.

Muallif pand-nasihatni murakkab terminologiya orqali emas, balki xalqona, sodda va ravon tilda ifodalaydi. Bu esa asarning didaktik ahamiyatini oshiradi va uni keng ijtimoiy qatlamlar uchun tushunarli qiladi. Mazkur holat "Qutadg'u bilig"ning xalq og'zaki ijodiga xos kommunikativ funksiyani davom ettirganini ko'rsatadi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida kelgan maqollarning hozirgi turk va o'zbek tillaridagi tarixiy takomili – fonetik, leksik, semantik, stilistik transformatsiyasi ochib beriladi.

Asarda keng ko'lamli ijtimoiy, siyosiy va axloqiy masalalar ko'tariladi. Asarning mazmuni ikki qarindosh - boy va kambag'al o'rtasidagi muloqot orqali ochib beriladi. Bu muloqotda turli xil hayotiy vaziyatlar, odamlarning tabiati va turmush tarziga oid masalalar muhokama qilinadi.

"Qutadg'u bilig"dagi maqollar, o'zbek xalqining donolik va tajribasini o'zida mujassam etgan holda, o'sha davr jamiyatining ijtimoiy va madaniy hayotini aks ettiradi. Bu maqollar, asarning mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi va

o'qiyotgan kishi o'z hayotida duch keladigan muammolarga yechim topishda foydalanishi mumkin bo'lgan qimmatli maslahatlarni taqdim etadi.

Asarning nazariy asoslari, shuningdek, o'sha davr Sharq mamlakatlaridagi boshqaruv uslublari, ijtimoiy tuzilish va insoniy qadriyatlarni o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Yusuf Xos Hojibning yozish uslubi, uning falsafiy qarashlari va didaktik yondashuvlari, o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

“Qutadg‘u bilig”ning o'rganilishi, nafaqat tarixiy va adabiy jihatdan, balki lingvistik, filologik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Asar, o'zbek tilining rivojlanish tarixini o'rganishda ham muhim manba hisoblanadi va uning matni, o'zbek tilining qadimgi shakllarini o'rganish uchun noyob materialdir.

Bugungi kunda adabiyot, tilshunoslik, madaniyat tarixi, ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarida ko'plab qimmatli asarlar o'rganilmoqda. Bu asarlar orasida turkiy tilining nodir namunalaridan biri bo'lgan "Qutadg‘u bilig” alohida ajralib turadi. “Qutadg‘u bilig” O'rta Osiyo turkiy adabiyotining eng muhim asarlaridan biri hisoblanib, o'rta turk tilining murakkab namunalaridan biri sifatida ko'riladi. Bu asar Qoraxoniylar saltanati davrida yashagan donishmand shoir Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan. “Qutadg‘u bilig” o'zining adabiy qimmati, axloqiy, madaniy-tarixiy ahamiyatiga ko'ra turkiy adabiyotning nodir asarlaridan biri sanaladi.

Ushbu maqolada biz “Qutadg‘u bilig”ni chuqurroq ko'rib chiqamiz va asarning kelib chiqishi, mazmuni, tili va madaniy akslarini o'rganamiz. Shuningdek, asar muallifi Yusuf Xos Hojibning hayoti, davrning ijtimoiy-siyosiy mazmuni bilan tanishamiz. “Qutadg‘u bilig” Markaziy Osiyoning boy tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib, ushbu maqola ushbu boy merosni chuqurroq anglash borasidagi sa'y-harakatlarimizning bir qismidir.

Shuningdek, “Qutadg‘u bilig” haqidagi akademik tadqiqotlar va bu asarning turk madaniyatiga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Asarning lisoniy nozikliklari, axloqiy ta'limotlari va adabiy qimmati ushbu maqolaning asosiy mavzularidan biri bo'ladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, “Qutadg‘u bilig” nafaqat turk adabiyotining qimmatli asari, balki O'rta Osiyoning boy merosining bir bo'lagi bo'lib, ushbu maqola ushbu merosni yanada chuqurroq anglashimizga hissa qo'shadi.

Turkiyalik olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asarni har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishning keng miqyoslarini namoyish etdi. Ular «Qutadg‘u bilig» shunoslikning qamrovini adabiyotshunoslik va tilshunoslik doirasidan falsafa, axloq, tarix, siyosatshunoslik va davlatchilik tarixi, huquqshunoslik jabhalarigacha kengayishga imkon yaratishdi.

Ilm ahliga yaxshi ma'lumki, “Qutadg‘u bilig”ning uch nusxasi mavjud: Qohira nusxasi, Namangan nusxasi, Vena nusxasi. Afsuski, har uchchala nusxa ham mukammal emas. Qo'lyozmalarda hattotlarning sahv-xatolari ko'p. Masalan, hattotlarning xatosi tufayli Namangan nusxasi 6,095 bayt, Qohira nusxasi 5,400 bayt,

Vena nusxasi esa butunlay nomukammal bo‘lib kolgan. Ulug‘ bobokalonimizning o‘zi tartib bergan va o‘sha davrda ko‘chirilgan asarning asil nusxasi haligacha topilgani yo‘q. Buning ustiga “Qutadg‘u bilig” asari ustidagi tadqiqotlar behad kechikib, faqatgina yigirmanchi asrga kelib boshlandi. XI asrda shunday asar yozilgani haqidagi ilk xabar bizning matbuotimizda 1914-yili e‘lon qilindi. Oradan o‘n yil o‘tgach, professor Abdurauf Fitrat dostonning Namangan nusxasini qo‘lga kiritdi va ma‘lum izohlar bilan asardan parcha e‘lon qildirdi. Oradan yigirma yil o‘tgach, bu xayrli ishga turk olimi Rishod Rahmatiy Orot qo‘l urdi. U “Qutadg‘u bilig”ning dunyoda mavjud uchchala nusxasini solishtirib, nomukammalliklar o‘rnini to‘ldirdi va 1947-yili dostonning nasriy bayonini chop ettirdi. Keyinchalik nisbatan mukammal nazmiy nusxasini tayyorlab, nashr qildirdi va uni hozirgi zamon usmonli turk tiliga tarjima qildi. Shuningdek asar mundarijasiga tartib berdi. Ma‘lumki, bazgacha yetib kelgan barcha nusxala muvdiriya yo‘k. Bundan tashqari Rishod Rahmatiy Orotning katta xizmatlaridan biri shundaki, u Yusuf Xos Hojibning yoshlikka achinib, keksalik haqida aytganlarini, zamonning buzuqligi va do‘stlarning jafosi to‘g‘risidagi fikrlarini, kitob egasi Yusuf Xos Hojibning o‘ziga nasihatini alohida qism qilib asarga kiritdi. Turk olimining bu benazir xizmati tufayli qo‘limizda hozir biz mutolaa qilayotgan nisbatan mukammal nusxa paydo bo‘ldi.

Asardagi Kuntug‘di (Adolat), Oyto‘ldi (Saodat), O‘gdulmish (Aql) va O‘zg‘urmish (Qanoat) obrazlari ramziy xarakterga ega bo‘lib, ular xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan timsollash usuliga tayanadi. Xalq ertaklari va afsonalarida mavhum tushunchalar ko‘pincha jonlantirilgan obrazlar orqali ifodalanadi. Ushbu usul murakkab g‘oyalarni sodda va ta’sirchan shaklda yetkazish imkonini beradi.

Yusuf Xos Hojib ramziy obrazlar o‘rtasidagi munosabatlar orqali jamiyatda muvozanat va uyg‘unlik g‘oyasini ilgari suradi. Bu holat asarning nafaqat badiiy, balki konseptual jihatdan ham xalq og‘zaki ijodi tafakkuriga yaqin ekanini ko‘rsatadi.

“Qutadg‘u bilig”ning kompozitsion tuzilishida dialogik shakl muhim o‘rin tutadi. Dialog usuli xalq og‘zaki ijodida, xususan, doston va masallarda keng qo‘llanilib, fikrning izchilligi va ta’sirchanligini ta’minlaydi. Asardagi savol-javob tarzidagi suhbatlar o‘quvchini mushohadaga chorlaydi va ta’limiy xulosalar chiqarishga undaydi.

Dialoglarning didaktik yo‘nalganligi “Qutadg‘u bilig”ni xalq og‘zaki ijodiga xos ta’limiy-badiiy an‘ananing yozma shakldagi davomchisi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Asarda ilgari surilgan axloqiy me‘yorlar xalq og‘zaki ijodida shakllangan ideal inson konsepsiyasiga mos keladi. Ideal shaxs — adolatli, dono, mehnatsevar va kamtar bo‘lishi lozim. Ushbu fazilatlar “Qutadg‘u bilig”da markaziy o‘ringa qo‘yilgan.

Hukmdor obrazi ham xalq og‘zaki ijodidagi adolatli podsho idealining badiiy ifodasidir. Muallif hukmdorni jamiyatning ustuni emas, balki xalq manfaatiga xizmat

qiluvchi mas'ul shaxs sifatida talqin etadi. Bu qarash xalq tafakkurida shakllangan ijtimoiy adolat konsepsiyasi bilan uyg'undir.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda "Qutadg'u bilig" ko'pincha xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot o'rtasidagi o'tish davri mahsuli sifatida talqin etiladi. Olimlar asardagi ramziy obrazlar, hikmatli baytlar va axloqiy g'oyalarni xalq tafakkurining badiiy umumlashmasi deb hisoblaydilar. Jumladan, A. Qayumovning tadqiqotlarida asar "xalq dunyoqarashining ensiklopedik ifodasi" sifatida baholanadi.

"Qutadg'u bilig" muallifi Yusuf Xos Hojib asarida xalq og'zaki ijodida shakllangan ijtimoiy-axloqiy qarashlarni yozma adabiyot darajasiga ko'targan.

Asar mazmunida xalq orasida asrlar davomida sayqallangan donishmandlik, adolat, sabr, qanoat, vatanparvarlik kabi tushunchalar markaziy o'rin tutadi.

Bu jihatdan asar xalq tafakkurining badiiy-falsafiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Asarda qo'llangan maqol, hikmat, pand-nasihatlar xalq og'zaki ijodining muhim janr xususiyatlarini eslatadi. Qisqa, lo'nda va mazmunan chuqur iboralar folklorga xos aforistik tafakkurni aks ettiradi. Bu hikmatlar ko'pincha xalq maqollariga yaqin bo'lib, ularning yozma shakldagi badiiy talqinidir.

Kuntug'di (Adolat), Oyto'ldi (Davlat), O'gdulmish (Aql), Odg'urmish (Qanoat) obrazlari xalq tafakkurida qadimdan mavjud bo'lgan abstrakt tushunchalarning personifikatsiyasidir. Bu obrazlar xalq og'zaki ijodiga xos ramziy fikrlash usulining yozma adabiyotdagi davomidir. Folklordagi ertak va rivoyatlarga xos didaktiklik bu obrazlar orqali kuchayadi.

"Qutadg'u bilig"ning asosiy vazifasi — tarbiya berish, bu esa xalq og'zaki ijodining yetakchi funksiyalaridan biridir. Asardagi nasihatlar ota-bola, ustoz-shogird, hukmdor-xalq munosabatlariga doir folkloriy qarashlarni o'zida mujassamlashtiradi. Nasihatlarning sodda, hayotiy va aniq bo'lishi ularning og'zaki an'anadan kelib chiqqanini ko'rsatadi.

Xulosa. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarini o'rganish tarixi ancha qadimgi davrlar bilan aloqador bo'lishiga qaramay, uning poetikasidagi o'ziga xosliklarni atroflicha va sinchiklab o'rganish zarurati hali-hanuz kun tartibida turibdi.

Jahon turkiyshunoslari bu borada ancha katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishdi. Bugun asarni o'rganishga oid bir qator jiddiy maktablar yuzaga kelganligini qayd etish mumkin. Bular orasida Turkiya, Rossiya, Xitoy maktablari qo'lga kiritgan yutuqlar ancha salmoqli ekanligi bilan ajralib turadi. Bu maktablar orasida o'zbekistonlik olimlar tomonidan yaratilgan maktabning o'ziga xos o'ringa ega ekanligini mamnuniyat bilan qayd etish o'rinlidir.

Bevosita asarning poetik xususiyatlari, ayniqsa, asarda qo'llangan maqollarning frazeologizmlarga munosabati masalasi endigina kun tartibiga qo'yilmoqda. Bu boradagi ilmiy ishlarning amalga oshirilishi Yusuf Xos Hojib badiiy mahoratining yangi qirralarini ochib berishiga shubha yo'q.

“Qutadg‘u bilig” — xalq og‘zaki ijodi tafakkurini yozma adabiyot darajasiga ko‘targan yirik badiiy-falsafiy asardir. Undagi pand-nasihat an‘analari, ramziy obrazlar tizimi, dialogik shakl va axloqiy ideallar asarning og‘zaki ijod bilan uzviy bog‘liqligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Yusuf Xos Hojib xalq donishmandligini umumlashtirib, uni konseptual-falsafiy tizimga solgan. Shu jihatdan “Qutadg‘u bilig” turkiy xalqlar xalq og‘zaki ijodi tafakkurining tarixiy, badiiy va falsafiy xotirasi sifatida yuksak ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Asarda xalq ongida muqim bo‘lgan halollik, adolat, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi qadriyatlar targ‘ib qilinadi. Ushbu axloqiy tamoyillar folklorda keng tarqalgan xalqona dunyoqarash bilan uyg‘unlashgan. Natijada asar xalq hayoti va ruhiyatiga yaqin bo‘lgan badiiy-falsafiy manba sifatida shakllangan.

“Qutadg‘u bilig” — faqat yozma adabiy yodgorlik emas, balki xalq og‘zaki ijodi tafakkurining yuksak namunasidir. Asarda folklorga xos ramziy obrazlar, hikmatli so‘zlar, axloqiy g‘oyalar va didaktik yo‘nalish uyg‘unlashgan. Shu bois “Qutadg‘u bilig” turkiy xalqlarning xalq tafakkuridan yozma adabiyotga o‘tish bosqichini ifodalovchi muhim manba hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. AKSOY, Ömer Asım(1995), Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, İnkılâp Yayınları, Ank..
2. ARSAL, S. Maksudi(1947),Türk Tarihi ve Hukuk, İ.Ü. Yayınları, İstanbul.
3. BAĞDATLI, Özlem(2007), Kutadgu Bilig’de Devlet ve Adalet İlişkisi, İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Yüksek Lisans Tezi, İstanbul
- 4.BOLAY, Süleyman Hayri(1997), Felsefi Doktrinler ve Terimler Sözlüğü, Akçağ Yayınları, Ankara.
5. BOZKAPLAN Şerif Ali (2007), Kutadgu Bilig’deki Hayvan Adları Üzerine Bir İnceleme, Turkish Studies, 2(4), 1110-1118.
6. DİLÂÇAR, Agop (1995), Kutadgu Bilig İncelemesi, TDK Yayınları, Ankara. (2003), Kutadgu Bilig İncelemesi, Türk Dil Kurumu Yayınları, Ankara.
7. DİLMAÇ, Bülent (2002), İnsanca Değerler Eğitimi, Nobel Yayınları, Ankara.
8. EKER, Süer (2006), Kutadgu Bilig’de Türkçe İslami Terimlerin Kaynakları Üzerine, Ahmet Yesevi Üniversitesi Mütevelli Heyet Başkanlığı, bilig,38, 103-122.
9. ERSOYLU, Halil (1981) Kutadgu Bilig’de Kur’an-ı Kerim Âyetlerinden İlhamlar, Türk Dünyası Araştırmaları Dergisi, 15, 17-41.
10. EYÜBOĞLU, E. Kemal (1973), Şiirde ve Halk Dilinde Atasözleri ve Deyimler, İst.
11. KARA, Mehmet (1990) Bir Başka Açıdan Kutadgu, Bilig, 23-24;71-81

Internet saytlar:

1. www.wikipedia.org
2. <https://blog.ciceksepeti.com/kiz-bebekler-icin-cicek-isimleri/>
3. <https://m.sabah.com.tr>
4. <https://lotusmagus.com>